



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI





No11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'ribojevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafuz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONIDA NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVLAR

N. O. Saidova

FarDU, p.f.f.d.(PhD), katta o'qituvchi

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – har bir o'quvchi shaxsiga individual yondasha oladigan, zamonaviy ilm-fanga tayangan ta'lim tizimini shakllantirishdir. Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlarning mohiyati, ahamiyati hamda ularni amaliyotda qo'llash yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari neyropedagogika usullarining bolalarda diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantirishdagi ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: psixofiziologik tayyorgarlik, neyropedagogika, miya rivojlanishi va o'rganishga tayyorgarlik, shaxsiy rivojlantirish va moslashuv, diqqat, xotira, tafakkur, diqqatni rivojlantirish, neyrogimnastika.

Abstract: Today, one of the most important tasks of the education system is to establish a learner-centered approach based on modern scientific principles that enables individualized instruction for every student. This article examines the essence and significance of neuro-pedagogical approaches in preparing children for school and highlights their practical implementation. The findings demonstrate that neuro-pedagogical methods positively influence the development of key cognitive processes in children such as attention, memory, thinking, and speech.

Key words: psychophysiological readiness, neuro-pedagogy, brain development and learning readiness, personal development and adaptation, attention, memory, thinking, attention development, neuro-gymnastics.

Аннотация: В настоящее время одной из важнейших задач системы образования является формирование такого подхода к обучению, который обеспечивает индивидуализацию процесса и опирается на современные достижения науки. В статье раскрываются сущность и значение нейропедагогических подходов в процессе подготовки детей к школе, а также направления их практического применения. Результаты исследования показывают положительное влияние методов нейропедагогики на развитие у детей когнитивных процессов – внимания, памяти, мышления и речи.

Ключевые слова: психофизиологическая готовность, нейропедагогика, развитие мозга и готовность к обучению, личностное развитие и адаптация, внимание, память, мышление, развитие внимания, нейрогимнастика.

KIRISH

Bolani maktabga tayyorlash bosqichlari jismoniy, kognitiv (aqliy), til va ijtimoiy-emotsional rivojlanish jihatlari o'z ichiga oladi. Ya'ni, bola maktab ta'limini boshlashdan avval fikrlash va xotira qobiliyatlari, nutq va muloqot ko'nikmalari, harakat koordinatsiyasi, mustaqillik hamda hissiy barqarorlik bo'yicha ma'lum tayyorgarlik darajasiga yetgan bo'lishi zarur.

Psixofiziologik tayyorgarlik deganda, bolaning ruhiy va jismoniy jihatdan maktab talablari darajasida rivojlanganligi tushuniladi. Bunday tayyorgarlik bolaning diqqatini jamlay olishi, o'zini tutishni boshqara bilishi, mayda va yirik motorika ko'nikmalariga ega bo'lishi kabi sifatlarda namoyon bo'ladi.

Agar bola erta yosh davrida tabiiy rivojlanish bosqichlarini muvaffaqiyatli bosib o'tgan bo'lsa va salbiy tashqi omillar ta'siri minimal darajada bo'lsa, u odatda 6–7 yosh oralig'ida maktab ta'limiga to'liq tayyor holatga yetadi. Zarurat tug'ilganda, pedagog va psixolog mutaxassislar tomonidan bolaning tayyorgarlik darajasi baholanadi hamda rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda neyropedagogika tushunchasi xalqaro ta'lim ilmida keng qamrovda o'rganilmoqda. Abdurafikova D.A. (2024) o'z tadqiqotlarida neyrogimnastika mashg'ulotlarining o'quvchilarning diqqat va xotira jarayonlariga ijobiy ta'sirini tahlil qilib, ularning o'quv motivatsiyasini oshirishdagi ahamiyatini ilmiy asosda ko'rsatgan. Duschanova N.S. (2025) esa "Neuroeducation and Innovative Technologies in Learner-Centered Teaching" nomli maqolasida neyropedagogik yondashuvning markazida o'quvchining shaxsiy kognitiv faolligini shakllantirish zarurligini asoslab bergan.

Better Kid Care (2021) tomonidan e'lon qilingan "School Readiness" materiallarida bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida kognitiv, motorik, emotsional va ijtimoiy tayyorgarlikning uzviy bog'liqligi muhim omil sifatida ta'kidlangan. Brightwheel Education Blog (2025) esa multisensor o'qitishning samaradorligini tahlil qilib, ko'rish, eshitish, harakat va hissiy idrokni uyg'unlashtiruvchi metodlar bolaning bilimni uzoq muddat saqlab qolishiga samarali ta'sir ko'rsatishini qayd etgan.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, neyropedagogika o'quv jarayonida miya faoliyatining individual xususiyatlarini inobatga olish orqali bolalarni maktab ta'limiga puxta va samarali tayyorlashning ilmiy asoslangan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayoni nazariy va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Nazariy jihatdan, neyropedagogika-ning asosiy konsepsiyalari, bola miyasining plastiklik (moslashuvchanlik) xususiyatlari hamda psixofiziologik rivojlanish tamoyillari tizimli tarzda o'rganildi. Amaliy bosqichda esa neyrogimnastika mashqlari, multisensor o'qitish va o'yinli metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi.

Tadqiqot uchun zarur ma'lumotlar o'zbek va xorijiy pedagogik manbalar, empirik kuzatuvlar hamda neyropsixologik tavsiyalar asosida umumlashtirildi. Metodologik asos sifatida kuzatish, taqqoslash, tahlil va sintez, shuningdek, pedagogik tajriba umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tanlandi. Tadqiqotning maqsadi – neyropedagogik metodlar orqali bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashning samarali shakllarini aniqlash hamda ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Neyropedagogika – bu neyronavologiya (miyaning ishlash mexanizmlarini o'rganadigan fan) va pedagogika yo'nalishlari tutashgan innovatsion yondashuv bo'lib, u bolalarning o'qishga tayyorlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Neyropedagogik yondashuvlar bola miyasining rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini individual ehtiyoj va imkoniyatlarga moslashtirishni nazarda tutadi.

Xususan, xotira, diqqat, emotsiya va motivatsiya kabi psixofiziologik omillar o'quv jarayonining muvaffaqiyatli kechishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, har bir bolaning individual rivojlanish sur'ati va qobiliyatlariga mos ravishda o'quv muhitini tashkil etish zarurligi ta'kidlanadi.

Neyropedagogika bolani maktabga tayyorlash bosqichida bir qator ustuvor yo'nalishlarda samarali natija beradi:

Miya rivojlanishi va o'rganishga tayyorgarlik. Neyropedagogik yondashuv bolalar miyasining plastiklik (moslashuvchanlik) xususiyatlariga tayangan holda, ta'lim mazmunini ularning yosh xususiyatlari va neyrofiziologik imkoniyatlariga muvofiq tarzda tashkil etadi. Masalan, darslarni qisqa segmentlarga bo'lib o'tkazish, vizual, eshituv, taktil va kinestetik (harakatli) vositalarni uyg'unlashtirib qo'llash orqali o'quv materialini samarali o'zlashtirishga erishiladi.

Shaxsiy rivojlanish va moslashuv. Maktabga o'tish davrida bola yangi muhit va faoliyat tizimiga moslashishi zarur bo'ladi. Neyropedagogik yondashuv bolaning stressni boshqarish, emotsiyalarni tartibga solish va ijtimoiy muhitga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, bola o'ziga ishonch hosil qiladi, sinfdagi faoliyatda o'zini erkin his etadi hamda yangi tartib va qoidalarga tezroq moslashadi.

Umumiy va maxsus tayyorgarlik uyg'unligi. Pedagogik adabiyotlarda maktabga tayyorgarlik ikki yo'nalishda ko'rib chiqiladi: umumiy va maxsus. Umumiy tayyorgarlik – bu bolaning har tomonlama rivojlanganligi, mustaqilligi va ijtimoiy-psixologik barqarorligidir; maxsus tayyorgarlik esa o'qish, yozuv va matematika kabi fanlarga oid boshlang'ich bilim hamda ko'nikmalarni qamrab oladi. Neyropedagogik yondashuv bu ikki yo'nalishni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi, aksincha, ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlaydi. Umumiy rivojlanish zaminida maxsus ko'nikmalarni shakllantirish yanada samarali kechadi.

Masalan, bola maktabga borishdan oldin qalamni to'g'ri ushlashni, shakllarni farqlashni va oddiy sanashni bilishi foydalidir. Biroq bu ko'nikmalar faqat jismoniy va aqliy yetuklik bilan, ya'ni qo'lning mayda motorikasi

rivojlanganligi, vizual idrok va diqqatning barqaror shakllanganligi bilan uyg'un bo'lgandagina to'liq samara beradi.

Yuqoridagi tahlillar nazariy jihatdan shuni ko'rsatadiki, maktabga tayyor bola – bu nafaqat o'qishni yoki sanashni biladigan, balki har tomonlama rivojlangan, yangi muhit va faoliyatga ruhiy hamda jismoniy jihatdan tayyor shaxsdir. Neyropedagogika esa ana shu kompleks rivojlanishni ta'minlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini maktabga tayyorlash jarayonida rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Neyropedagogik metodlar orqali bolalarning aqliy faoliyatini faollashtiruvchi asosiy psixik funksiyalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi.

1. **Diqqatni rivojlantirish.** Diqqatni jamlash va uni ma'lum vaqt davomida ushlab turish ko'nikmasini shakllantirish uchun o'yin va mashqlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, "Simon aytadi" o'yini jarayonida bolalar "Simon"ning ko'rsatmasiga muvofiq sakrash yoki muvozanatda turish kabi harakatlarni bajaradilar. Ushbu harakatli o'yinlar bolalarda tinglab tushunish, e'tibor va diqqatni jamlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, "Qizil–yorug'–yashil" (svetofor) o'yini orqali bolalar qizil signalda to'xtash, yashil signalda harakatlanish kabi qoidalarni o'zlashtirgan holda e'tibor va reaksiyalarini boshqarishni o'rganadilar.

Diqqatni faollashtirishning yana bir samarali usuli – dars davomida qisqa miya tanaffuslarini joriy etishdir. Masalan, 15–20 daqiqalik mashg'ulotdan so'ng bolalar cho'zilib, nafas olish mashqlari yoki 1 daqiqalik yengil jismoniy harakatlar bajaradilar. Bunday mashg'ulotlar diqqatning qayta tiklanishiga va aqliy charchoqqa yo'l qo'ymaslikka yordam beradi.

2. **Xotirani mustahkamlash.** Bolalarda xotira jarayonini rivojlantirishda multisensor yondashuv muhim o'rin tutadi. Masalan, harfni o'rganish jarayonida bola uni bir vaqtning o'zida ko'radi, eshitadi va qo'llari bilan terib yozadi, bu esa xotira izlarini mustahkamlaydi. O'yin shaklidagi topshiriqlar ham xotira uchun samaralidir. Masalan, "Kim yo'q?" o'yini (bolalarga bir guruh predmetlar ko'rsatiladi, so'ng ulardan biri olib tashlanadi va qaysi predmet yo'qligi so'raladi) vizual xotirani rivojlantiradi.

Shuningdek, "Matching" (juftini topish) kartochkali o'yinlar bolalarning ishchi xotirasini va vizual eslab qolish qobiliyatini mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi kanallarini jalb etish orqali o'rganilgan ma'lumotlar bola miyasida kuchliroq nerv aloqalarini shakllantiradi va bu, o'z navbatida, ma'lumotni uzoq muddat eslab qolishga imkon yaratadi.

3. **Tafakkur (fikrlash) va muammo yechish.** Bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar asosidagi topshiriqlar va boshqotimalardan foydalanish tavsiya etiladi. Neyropedagogik yondashuvga ko'ra, bola o'yin orqali o'rganayotganda miyada motivatsiya, ijodkorlik va qaror qabul qilish jarayonlariga mas'ul markazlar faolroq ishlaydi.

Masalan, "Kim balandroq minora quradi?" nomli konstruktor (LEGO va sh.k.) o'yini bolalarda tafakkur, fazoviy idrok va muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, matematik bloklar yoki predmetlarni guruhlarga ajratish o'yinlari (masalan, "Rangiga qarab tasnifla", "Kattaligiga ko'ra tartiblash") bolalarda analiz va sintez kabi fikrlash jarayonlarini faollashtiradi. Bunday jismoniy faoliyat bilan uyg'unlashgan o'yinlar bolalarda abstrakt tafakkurning shakllanishiga mustahkam poydevor yaratadi.

4. **Nutq va til ko'nikmalarini rivojlantirish.** Maktabga tayyor bolaning og'zaki nutqi va tushunish qobiliyatini rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Fonematik eshitishni kuchaytirish uchun neyropedagoglar multisensor o'qitish yondashuvini taklif etadilar. Masalan, harflarni qo'lda shag'al yoki qum ustiga yozish, har bir harf tovushiga mos qo'shiq yoki she'r kuylash orqali bola eshitish, ko'rish va harakat sezgilarini birgalikda ishlatadi. Bu esa tovushlarni aniq farqlashni osonlashtiradi.

Rolli o'yinlar va hikoya tuzish mashqlari ham nutqni rivojlantirishda yuqori samara beradi. Bolalar o'zlari to'qigan ertaklarni boshqalarga so'zlab berish yoki kichik sahnalarni teatrlashtirib ijro etish orqali lug'at boyligini, ifoda imkoniyatlarini va og'zaki tafakkurini kengaytiradi. Pedagog esa bu jarayonda yo'naltiruvchi rol o'ynaydi: u bolalarga savollar berib, ularni fikrini mustaqil va to'liq ifodalashga rag'batlantiradi. Masalan: "Seningcha, keyin nima bo'lishi mumkin?" yoki "Bu qahramon o'zini qanday his qilmoqda?" kabi savollar bolaning tafakkurini chuqurlashtiradi va nutqni mantiqan izchil shakllantiradi.

Neyropedagogik metodlar kognitiv rivojlanish jarayonida o'yin, harakat va hissiy tajribani uyg'unlashtiradi. Bunday yondashuv bolalarda xotira va diqqatning yaxshilanishiga, ijodiy fikrlash hamda muammolarni hal etishga bo'lgan qiziqishning ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi va funksiyalarni faol jalb etgan holda o'qitish bolaning o'zlashtirish darajasini oshi-



radi va olingan bilimlarning uzoq muddat davomida saqlanishini ta'minlaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimida diqqat, xotira, tafakkur va nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus o'yin va mashg'ulotlar bolalarning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Neyrogimnastika – bu bolalar miya faoliyatini jismoniy mashqlar orqali rag'batlantiruvchi maxsus mashg'ulot turi hisoblanadi. Amerikalik olimlar Pol va Geyl Dennison tomonidan ishlab chiqilgan "Brain Gym" ("Miya gimnastikasi") tizimi neyrogimnastikaning eng mashhur namunalaridan biri bo'lib, u kinesiologiya – ya'ni harakat orqali o'rganish tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotlar (2024–2025–yillar) shuni tasdiqlaydiki, oddiy jismoniy mashqlarni bajarish orqali intellektual rivojlanishni rag'batlantirish mumkin. Neyrogimnastika bilan muntazam shug'ullanuvchi bolalarda xotira, diqqat, idrok, nutq, harakat koordinatsiyasi, tafakkur, ijodkorlik, o'zini boshqarish va motivatsiya kabi kognitiv hamda psixologik ko'rsatkichlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, har kuni bir necha daqiqa davomida "miyani uyg'otuvchi" sodda mashqlarni bajarish bolalarning umumiy aqliy va jismoniy holatiga sezilarli darajada foydali ta'sir ko'rsatadi.

Neyrogimnastika mashqlari, odatda, tana harakatlari orqali miyaning chap va o'ng yarim sharlarining uyg'un faoliyatini ta'minlashga qaratilgan. Bunday mashqlar to'plami lateral mashqlar deb ham yuritiladi, chunki ular miya yarim sharlarining o'zaro muvofiqlashuvini faollashtiradi. Neyropsixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan turli harakatli mashqlar majmuasi bolaning asab tizimini rivojlantirishga yordam beradi hamda neyrofiziologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Masalan, "O'rmon oralab yurish" mashqi (Cross Crawl) jarayonida bola navbatma-navbat o'ng qo'lini chap tizzasiga va chap qo'lini o'ng tizzasiga tekkizadi (o'rinlar almashgan holda). Ushbu mashq ikki yarim shar faoliyatini bog'lovchi o'rta chiziqni kesib o'tish orqali miya integratsiyasini kuchaytiradi. Qarama-qarshi qo'l va oyoq harakatlarini bajarish natijasida miya yarim sharlarining hamkorligi yaxshilanadi: bola bir vaqtning o'zida harakatlanish va fikrlash kabi ikki faoliyatni samarali bajarishga o'rganadi.

Bu jarayon o'quv va yozuv ko'nikmalarining shakllanishini tezlashtiradi, shuningdek, bolaning diqqat barqarorligi, muvozanatni saqlash va fazoviy tasavvurini rivojlantiradi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, bu turdagi mashqlar bolada umumiy tasavvur bilan qisman detallarning o'zaro bog'lanishini tezda anglash ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada bola bir vaqtning o'zida ham umumiy manzarani, ham uning tarkibiy qismlarini idrok etish qobiliyatiga ega bo'ladi.

"Dangasa sakkizlik" mashqi (Lazy Eight). Bu mashqda bola ko'rsatkich barmog'ini havoda kattakon "∞" (cheksizlik belgisi) shaklida harakatlantiradi. Ushbu xayoliy sakkiz raqamni barmoq bilan chizish mashqi ko'z harakati va qo'lining nozik motorikasini bir vaqtda faollashtiradi. Natijada, bola vizual kuzatish qobiliyatini rivojlantiradi, ko'z–qo'l muvofiqlashuvi yaxshilanadi va yozuv jarayonida satr bo'ylab silliq harakatni shakllantiradi. Bu mashq, ayniqsa, harflarni yozishga tayyorgarlik bosqichida yuqori samaradorlik beradi.

"Ikki qo'llab chizish" mashqi (Double Doodle). Ushbu mashqda bolaga qog'oz va ikkita qalam berilib, bir vaqtning o'zida ikki qo'li bilan rasm chizish topshirig'i beriladi. Masalan, bola o'ng qo'li bilan doira chizsa, chap qo'li bilan ham xuddi shu doirani takrorlaydi. Bunday ikki tomonlama faoliyat miyaning chap va o'ng yarim sharlarini birdek faollashtiradi, ikki qo'lni uyg'un ishlatish ko'nikmasini rivojlantiradi hamda neyron aloqalar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi. Natijada, bolada qo'l harakati koordinatsiyasi yaxshilanadi, bu esa keyinchalik yozuv chirovi va harakat aniqligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshqa neyrogimnastika mashqlari. Barmoq gimnastikasi (masalan, "quyoncha", "to'rva tikish" kabi qo'l teatri elementlari) bolalarning mayda motorikasi, qo'l–barmoq koordinatsiyasi va miya faoliyati o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi. Streching (cho'zilib) mashqlari – masalan, qo'lni yuqoriga cho'zish, qulochni keng yoyish yoki oyoq uchiga egilish – mushaklar tarangligini kamaytiradi, asab tizimini tinchlantiradi va diqqatni jamlashga yordam beradi. Energiya mashqlari (masalan, tezkor nafas olish, badanni ritmik harakatlantirish) esa miyada asab impulslarining o'tish tezligini oshiradi, bu esa o'qish jarayonida ma'lumotni tezroq idrok etish va qayta ishlash imkonini yaratadi.

Neyrogimnastika mashqlaridan ertalabki badan tarbiyasi tarkibida yoki darslar orasidagi "miya tanaffuslari" sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, maktabgacha ta'lim guruhlarida ertalab mashg'ulot boshlanishida 5–7 daqiqa davomida yuqorida tilga olingan mashqlar majmuasini bajarishi mumkin. Mutaxassislarining fikricha, bunday mashqlarni muntazam bajarish bolalarda asab tizimining moslashuvchanligini oshiradi, kognitiv faoliyatni faollashtiradi va o'qishga bo'lgan tayyorgarlikni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Ayrim ilmiy tadqiqotlar (2024–2025–yillar) shuni ko'rsatadiki, 7–8 yoshli bolalar uchun kun tartibiga neyrogimnastika mashqlarini kiritish o'quv materialini idrok etish va o'zlashtirish tezligini oshiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni tasdiqlaydiki, neyrogimnastika va lateral mashqlar bolalarning nafaqat jismoniy, balki aqliy salohiyatini ham sezilarli darajada rivojlantiradi. Bunday mashqlar miyaning ikki yarim sharini uyg'un faoliyatga yo'naltirib, o'ng yarim shar bilan bog'liq ijodiy tasavvur va makoniy idrokni, chap yarim shar bilan bog'liq til va mantiqiy fikrlash jarayonlarini muvozanatlashtiradi.

Natijada bolalarda o'qish, yozish va hisoblash kabi o'quv faoliyatlari uchun zarur bo'lgan neyron aloqalar mustahkamlanadi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, ayrim maktab yoshidagi bolalarda go'daklik davriga xos

primitiv reflekslar saqlanib qolgan holatlar uchrashi mumkin. Bu holat ularning o'qish va yozishga o'rganish jarayonini sekinlashtiradi. Neyrogimnastika mashqlari esa ushbu saqlanib qolgan reflekslarni integratsiya qilishga yordam beradi. Masalan, "oyoq–qo'lni qarama–qarshi harakatlantirish" mashqi assimetrik tonik bo'yin refleksini kamaytiradi va bolaga partada to'g'ri o'tirish, bir vaqtda yozish uchun zarur bo'lgan asab–muskul muvofiqligini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Neyropedagogika – bu bolalarni maktabga tayyorlashda ilmiy asoslangan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdir. U bolaning diqqat, xotira, tafakkur, nutq hamda emotsional barqarorlik kabi kognitiv va psixologik jihatlarini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. Neyrogimnastika hamda multisensor mashg'ulotlar orqali bola o'qish, yozish va hisoblash faoliyatlariga psixofiziologik jihatdan to'liq tayyorlanadi.

Umuman olganda, neyrogimnastika va lateral mashqlar bolalarning o'quv faoliyatiga tayyorgarligini kuchaytiruvchi samarali vositalar hisoblanadi. Ular bolaning miya faoliyatini "ko'tarinki ruhda uyg'otadi", darslarga bo'lgan qiziqishni oshiradi, o'rganish jarayonini osonlashtiradi hamda intellektual salohiyatning to'liq namoyon bo'lishiga zamin yaratadi. Natijada bola yangi bilimlarni tezroq o'zlashtiradi, o'z fikrini mustaqil ifodalash qobiliyatiga ega bo'ladi va o'quv jarayonida yuqori faollik namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nosirova, R. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati. – Chirchiq DPI maqolasi, 2021.
2. Duschanova, N. S. Neuroeducation and Innovative Technologies in Learner-Centered Teaching. – Science and Innovation, 2025.
3. Better Kid Care. School Readiness. – Pennsylvania State University, extension.psu.edu.
4. Brightwheel Education Blog. Multisensory Learning. – October 02–2025.
5. Abdurafikova, D. A. Neurogymnastics and Its Place in the Educational Process. – JournalNX, 2024.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.